



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№1(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 312 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash	16
<i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>	
Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati	21
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi</i>	
O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari	25
<i>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish	29
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari	32
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	37
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharfova Shahinabegim Saidabbos qizi</i>	
Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari	41
<i>Ibodullayeva Munira Atabek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi.....	44
<i>Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	49
<i>Abira Bakhramova</i>	
Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar	54
<i>Artikova Gulnoza Xasanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari	57
<i>Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna</i>	
Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari	60
<i>Meyliqulova Manzura Abdullayevna</i>	
Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL.....	63
<i>Noila Mustafoeva</i>	
Tarixiy obidalarining restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi	67
<i>Ochilov Davron Bahodir o'g'li</i>	
Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi	72
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi</i>	
Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi.....	76
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li</i>	
Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.....	80
<i>Rajabova Matluba Toshkentboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	83
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri	86
<i>Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna</i>	
Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi	90
<i>Tashimov Nurlan Erpolatovich</i>	



Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	94
Uralova Muxabbat Sanjar qizi	
O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi	98
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера.....	101
Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи	
Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект.....	107
Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна	
Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений.....	111
Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржоновна Мохира Илхомжон кизи	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	115
Artikbayeva Aziza Abror qizi	
Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi	118
Berdiyeva Lobar Norqobulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish.....	120
Esanova Maysara Umirovna	
Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari	124
Feruza Yusupova Akildjanovna	
Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari.....	130
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish	134
Umarov Xusniddin	
Bo'lajak talabalarining individual yondashuv asosida kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish	138
Arslonova Gulsora Kurbonovna	
Ona tili darslarida til kompetentsiyasini kognitiv-semantik yondashuv asosida shakllantirish	142
Mo'minova Go'zalxon G'ulamjanovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	147
Maxliyo Turotova Erkin qizi	
Talabalarining kreativligini musiqiy-nazariy fanlar vositasida oshirish samaradorligi	153
Urinova Sabina Shuxrat qizi	
Imijning ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talqini	160
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna	
Inklyuziv kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari	163
Abdubannobova Mahliyo Abdurashid qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional kompetentsiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	167
Abdurasulova Dilnoza Abdug'ani qizi	
Muxammas (taxmis) janrining o'zbek she'riyatidagi tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy poetik talqinlari	170
Avazova Sitara	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorining asosiy shakllari.....	173
Babayeva Dono Razzakovna, Erkinova Madinabonu Otabek qizi, Xolmatova O'g'li Tojiddin qizi	
Yangi taraqqiyot davrida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	177
Botirova Zohida Doniyor qizi	
Logoritmikada sportga asoslangan o'yinlar	180
Dilfuza Ochilova Zayniddinovna	
Jismoniy tarbiyaning o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri (Andijon shahridagi Prezident maktabi tajribasi asosida).....	184
Ibragimov Shuhratbek Iminjonovich	



Bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning zaruriyati	188
Karimova Feruzaxon Zakirovna	
Effective Techniques of Teaching Foreign Language Classes: a Sample of The 4CS Method	191
Khaitmuratova Zarina Sobirdjanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual imkoniyatlarini tabiat bilan tanishtirish orqali shakllantirish ..	193
Maxmudova Durdona Mirkarimovna	
O'quvchilarning kasbiy ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	196
Mutallibjonov Ma'rufjon	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibini to'g'ri tashkil etish	200
Muxtorova Mohira Ma'rufjon qizi	
Aksiologik yondashuv asosida altruistik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish	204
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
O'smirlarda agressiv xulq-atvorini psixologik o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari	207
Norqulova Dildora Shavkat qizi	
Raqamlashtirish jarayonida bo'lajak muhandislarni ishlab chiqarish-texnologik faoliyatiga tayyorlashning dasturiy-metodik ta'minoti	211
Nurov O'tkir Xudoyberdiyevich	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etilish	214
O'roqova Zilola Salomovna	
Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida amaliy tayyorgarlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.....	217
Qaramanov Obid Xudayberdiyevich	
Pedagoglar uchun sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlari	221
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich	
Talabalarda psixologik moslashuvchanlikda refleksiya mohiyati va kognitiv qobiliyatni rivojlantirish samaradorligi.....	226
Ravshanova Nargiza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integrallashgan mashg'ulotlarni tashkil etish	230
S. Irisova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida marketing faoliyatini tizimli tashkil etishning nazariy asoslari	233
Sadikova Dilafuz Xusanovna, Qo'chqorova Munisa Anvar qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini xalq ertaklari asosida rivojlantirish	237
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Abduraufova Muxayyo Xabibullo qizi	
Bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik yondashuv	241
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Sanoqulova Gulasal Nurillo qizi	
Sun'iy intellektni tibbiy oliy ta'lim o'quv dasturlarini ishlab chiqishda qo'llash: innovatsion yondashuvlar va tajribalar	246
Toxirova Farida Olimjonovna	
Talabalarni estetik tarbiyalashda milliy xalq o'yinlaridan foydalanish modeli.....	251
Usarov Murodjon Mamarasul o'g'li	
Xalqaro kimyo olimpiadalariga o'quvchilarni tayyorlashda xalqaro baholash tadqiqotlariga asoslangan kreativ topshiriqlar va fanlararo integratsiyadan foydalanish metodikasi	254
Usmanov Baxtiyor Xabibullayevich	
Xoja (Sayyid Poshshoxoja ibn Abdulvahhobxo'ja) va uning asarlarining o'zbek nasridagi o'ri va ahamiyati.....	258
Valijonova Mahzunabonu	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruvida diversifikatsiya: tizimli yondashuv va rivojlanish strategiyalari	261
Xakimova Sevara Shavkat qizi	
STEAM texnologiyasini nodavlat ta'lim tashkilotlarida ommalashtirishning ijobiy tomonlari.....	264
Xalokova Maksudaxon Ergashevna, Melnikova Zaynura	
Muhammad Sodik Qoshg'ariy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi.....	267
Moxira Niyoqulova Nuraliyevna	



Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanini o'qitish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (AQSh tajribasi).....	270
<i>Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi</i>	
Xalqaro baholash dasturlari mohiyati va ahamiyati	274
<i>Vohidova Ibodat Hurmatullayevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv	277
<i>Xujamiyarov Sa'dullo Choriyevich</i>	
Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	281
<i>Xusanova Dilraboixon Botiraliyevna</i>	
Talabalarning jismoniy tayyorgarligida suzish mashg'ulotlarining ta'siri	285
<i>Zuxriddin Nasibovich Boboshev</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadryatlar asosida tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	289
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Dadabayev Akramjon Askaraliyevich</i>	
Использование чат-ботов в образовательном процессе	294
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир кизи</i>	
Формирование гендерной культуры детей старшего дошкольного возраста в контексте государственной стратегии Узбекистана	298
<i>Намазбаева Лола Закировна, Тиллабаева Малика Хабибуллаевна</i>	
STEAM технологии в дошкольном образовании	302
<i>Садикова Дилафруз Хусановна</i>	
Системная модель социально-эмоционального обучения в Узбекистане: интеграция подходов, основанных на школьном образовании и партнерстве семьи и школы	307
<i>Санакулова Нигора</i>	

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KUN TARTIBINI TO'G'RI TASHKIL ETISH

Muxtorova Mohira Ma'rufjon qizi

Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi maktabgacha,
boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kun tartibini to'g'ri tashkil etishning pedagogik, psixologik va fiziologik ahamiyati yoritilgan. Unda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ovqatlanish, uyqu, o'yin, ta'limiy mashg'ulotlar va jismoniy faollikning muvozanatli taqsimlanishi ularning sog'lom rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, kun tartibining izchil va muntazam bo'lishi bolalarda mustaqillik, intizom, vaqtini to'g'ri anglash hamda ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni ochib beriladi. Maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari va ota-onalar uchun amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, kun tartibi, bolalar rivoji, tarbiya, ta'lim, sog'lom turmush tarzi, jismoniy faollik, o'yin faoliyati, uyqu va ovqatlanish, intizom.

Abstract: This article examines the pedagogical, psychological, and physiological importance of properly organizing the daily routine of preschool children. It analyzes how the balanced distribution of sleep, nutrition, play activities, educational sessions, and physical activity—taking into account children's age characteristics—affects their healthy and harmonious development. Special attention is given to the role of a consistent and structured daily routine in fostering independence, discipline, positive behavior skills, and time awareness in children. The article is intended for preschool educators and parents and provides practical recommendations.

Key words: preschool age, daily routine, child development, upbringing, education, healthy lifestyle, physical activity, play activity, sleep and nutrition, discipline.

Аннотация: В данной статье рассматривается педагогическое, психологическое и физиологическое значение правильной организации режима дня детей дошкольного возраста. Анализируется влияние рационального распределения сна, питания, игровой деятельности, учебных занятий и физической активности с учётом возрастных особенностей детей на их гармоничное и здоровое развитие. Особое внимание уделяется роли стабильного и последовательного режима дня в формировании самостоятельности, дисциплинированности, навыков положительного поведения и осознания времени. Статья предназначена для воспитателей дошкольных образовательных организаций и родителей и содержит практические рекомендации.

Ключевые слова: дошкольный возраст, режим дня, развитие детей, воспитание, обучение, здоровый образ жизни, физическая активность, игровая деятельность, сон и питание, дисциплина.

KIRISH

Inson salomatligining poydevori erta bolalik davrida qo'yiladi. Binobarin, sog'lom insonni tarbiyalash va shaxsni to'g'ri shakllantirish, ayniqsa, maktabgacha yosh davrida alohida ahamiyatga ega. Jismoniy va aqliy rivojlanishning zarur darajasini ta'minlaydigan ko'plab shartlar orasida yetakchi o'rin kunning ratsional rejimiga tegishlidir. Har qanday bola uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti muhitiga moslashish murakkab bosqich hisoblanadi. Ayni paytda atrof-muhit keskin o'zgaradi va yaqin ota-onalar o'rniga tarbiyachilar, enagalar hamda boshqa yordamchi xodimlar bolalarga g'amxo'rlik qila boshlaydi. Barcha jarayonlar har bir bolaning o'z joyi, o'yinchoqlari, do'stlari va boshqalarga ega bo'lgan yangi bolalar jamoasida kechadi ^[1].

Bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga tez va og'riqsiz moslashishi uchun ota-onalar farzandini tashkilotga olib kelishdan oldin muassasa rejimiga tayyorlashlari lozim. Bolaning yangi muhitda qanday his-tuyg'ularni boshdan kechirishi va kundalik faoliyatni bajarishi uning moslashuviga katta ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida kunlik rejim mavjud bo'lib, kutish, o'yin, ovqatlanish va mashg'ulotlar qat'iy belgilangan soatlarda o'tkaziladi. Bolani maktabgacha ta'lim tashkilotiga berishdan oldin ota-onalar uy sharoitida uyqu va ovqatlanish vaqtlarini tashkilot rejimiga mos holda yo'lga qo'yishlari zarur. Buning uchun ota-onalar kundalik rejimning maktabgacha ta'lim tashkilotida qanday tashkil etilishini bilishlari kerak.



Ertalabki gimnastika kundalik hayotda jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlarining majburiy tarkibiy qismi bo'lib, barcha mushaklarning mashq qilinishini ta'minlaydi va to'g'ri holatni rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, bolaning organizmini keyingi faoliyat jarayonlariga tayyorlaydi [2]. To'g'ri tashkil etilgan jismoniy tarbiya yaxshi jismoniy shakllanishga, kasalliklarning oldini olishga va umumiy faollikni oshirishga xizmat qiladi. Yurish salomatlikni mustahkamlash hamda charchoqning oldini olishning ishonchli vositasidir. Toza havoda bo'lish moddalar almashinuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ishtahani oshiradi, oziq moddalarining, ayniqsa, oziq-ovqat tarkibidagi vitaminlarning hazm bo'lishini yaxshilaydi. Nihoyat, yurish kun tartibining muhim elementi bo'lib, bolalarga ochiq o'yinlar, mehnat jarayonlari va turli jismoniy mashqlar orqali harakatga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Agar yurish to'g'ri va samarali tashkil etilgan hamda uning davomiyligi yetarli bo'lsa, bolalar unda faol harakatlar orqali kunlik harakat ehtiyojining taxminan 50 foizini qondiradilar. Bolalar jismoniy tarbiyasining asosiy va eng samarali shakli o'yin hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Atoqli sovet pedagogi A. S. Makarenko o'yinning rolini yuqori baholab, shunday deb yozgan edi: "Bolada o'yinga ishtiyoq bor va uni qondirish kerak. Unga nafaqat o'ynash uchun vaqt berish, balki bu o'yinni butun hayoti bilan to'ldirish kerak" [3]. O'yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati hisoblanadi. O'yinlarning tabiati, ular hal qiladigan vazifalar hamda organizmga ta'siri turlicha bo'lib, qurilish materiallari bilan o'ynaladigan va rolli o'yinlar a'zolar rivojlanishini, aqliy faoliyatning murakkab jarayonlari – nutq, mantiqiy fikrlash, tasavvur, xotira va boshqa psixik funksiyalarning shakllanishini ta'minlaydi. Ochiq o'yinlar esa statik harakatlar va ruhiy zo'riqish bilan bog'liq mashg'ulotlardan keyin charchoqni bartaraf etadi hamda bolalarning harakatga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Ta'lim va tarbiya jarayoni davlat talablari va davlat o'quv dasturi asosida amalga oshiriladi hamda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim va tarbiya jarayoni o'quv yili asosida tashkil etilib [4], o'quv yili 2-sentabrda boshlanadi va 31-maygacha davom etadi, 1-iyundan 31-avgustgacha esa maktabgacha ta'lim tashkilotida yozgi sog'lomlashtirish davri tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ish yo'nalishidan kelib chiqib, faoliyat quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan o'zgaruvchan ta'lim yo'nalishlari (maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lishning muqobil tartiblari, jismoniy faoliyat rejimlari, moslashtirilgan o'quv rejimlari);
- tarbiyalanuvchilarga individual yordam ko'rsatish uchun mutaxassislar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning o'zaro hamkorligini ta'minlash;
- bolalar bilan sog'lomlashtirish ishlari tizimi, ko'ngilochar tadbirlar dasturi, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti muayyan ixtisoslikka ega bo'lgan taqdirida, tashxis va sog'lomlashtirish guruhlari bo'yicha farqlanishi [5];
- guruhning ta'lim faoliyatida (o'qitish, sog'lomlashtirish, tuzatish va rivojlantirish ishlari hamda ta'lim natijalarini diagnostika qilishda) maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislarining muvofiqlashtirilgan va o'zaro hamkorlikdagi faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar.

Shuni ta'kidlash joizki, ta'lim jarayonini individuallashtirishni ta'minlaydigan ixtisoslashtirilgan va ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (bu o'z faoliyat profiliga ega bo'lgan muassasalarga xos) tarbiyalanuvchilar uchun individual ta'lim yo'nalishlari (ta'lim, sog'lomlashtirish, korreksion-rivojlantiruvchi) yoki bolalar bilan individual ishlash vositalari (individual mashg'ulotlar, kuzatuv xaritalari, individual tashrif rejimi, maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislari tomonidan ota-onalarga beriladigan individual maslahatlar va boshqalar) ham joriy etilgan [6].

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalar bilan ta'limiy ishlar tizimi yosh guruhlari bo'yicha umumiy kun tartibi, ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari va usullari, umumiy ta'limiy faoliyat jarayoni (faoliyatlarga yo'naltirish, markazlarda ishlash)ni o'z ichiga oladi. Kun tartibini tashkil etish SanPiNga muvofiq holda bolalarning guruhda bo'lishini ta'minlashga qaratiladi. Mazkur guruhning yosh xususiyatlari, maktabgacha ta'lim tashkilotining o'ziga xos jihatlari hamda SanPiN talablari hisobga olingan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lishining batafsil tartibi ilova qilinadi. Qo'shimcha ravishda harakatlar tartibi, korreksion mashg'ulotlar, to'garaklar va seksiyalar jadvali, bolalarni chiniqtirish tartibi va boshqa hujjatlar ilova qilinishi mumkin.



MTT guruhlarining namunaviy kun tartibi doirasida bolalar to'liq kun davomida bo'ladigan guruh uchun kun tartibi va vaqtning taxminiy taqsimoti quyidagicha belgilanadi:

- bolalarni qabul qilish, erkin o'yin faoliyati va ertalabki badantarbiya 7:30–8:20 (50 daqiqa);
- nonushtaga tayyorgarlik va nonushta 8:20–8:45 (25 daqiqa);
- ertalabki davra suhbat 8:45–9:00 (15 daqiqa);
- ta'lim va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda) 9:00–9:40 (40 daqiqa), bunda har bir mashg'ulot va erkin faoliyat davomiyligi 15–20 daqiqani tashkil etadi;
- hafta mavzusi bo'yicha rivojlanish markazlarida bolalar tanloviga ko'ra o'yin asosidagi ta'lim va tarbiya jarayoni 9:40–10:30 (50 daqiqa);
- birinchi sayr (kuzatish, mehnat faoliyati, harakatli o'yinlar, mustaqil va individual faoliyat) 10:30–11:30 (60 daqiqa);
- sayrdan qaytish [kiyim almashtirish, gigiyenik tadbirlar, individual faoliyat (zarurat bo'lganda logoped, defektolog, psixolog, musiqa rahbari bilan ishlash)] 11:30–12:00 (30 daqiqa);
- tushlikka tayyorgarlik va tushlik 12:00–12:30 (30 daqiqa);
- guruh xonasida erkin o'yin faoliyati 12:30–13:00 (30 daqiqa);
- uyquga tayyorgarlik va kunduzgi uyqu, uyqusiz guruhlarda esa bolalarning erkin va tinch o'yin faoliyati, individual ishlash hamda badiiy adabiyot o'qish 13:00–15:00 (120 daqiqa);
- tetiklashtiruvchi gimnastika, havo va suv muolajalari 15:00–15:10 (10 daqiqa);
- ikkinchi tushlikka tayyorgarlik va ikkinchi tushlik 15:10–15:30 (20 daqiqa);
- ta'lim va tarbiya jarayoni (katta va kichik guruhlarda) 15:30–16:10 (40 daqiqa), bunda har bir faoliyat turining davomiyligi 15–20 daqiqani tashkil etadi;
- erkin o'yin faoliyati 16:10–16:50 (40 daqiqa);
- ota-onalarning iltimosiga binoan qo'shimcha ta'lim xizmatlari (to'garaklar) va bolalar bilan individual ishlash 16:10–16:50 (40 daqiqa);
- kechki davra suhbat yoki kun refleksiyasi 16:50–17:10 (20 daqiqa);
- ikkinchi sayr va erkin o'yinlar 17:10–17:55 (45 daqiqa);
- ota-onalar bilan ishlash va bolalarning uyga ketishi 17:30–18:00 (30 daqiqa).

Fiziologik nuqtai nazardan to'g'ri ovqatlanishning asosiy tartibi quyidagicha belgilanadi:

- nonushta 08:30–09:30;
- ikkinchi nonushta 10:30–11:00;
- tushlik 12:00–13:00; ikkinchi tushlik 15:30–16:00;
- kechki ovqat 18:30–19:00;
- kechki tamaddi 20:00–20:30.

Maktabgacha yoshdagi bolaning kun tartibi kunning ma'lum bir davrida bajarilishi lozim bo'lgan tadbirlar majmuasidan iborat bo'lib, u o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish, o'yinlar va bolalarning sevimli mashg'ulotlariga yetarli vaqt ajratish imkonini beradi. Bolani rivojlantirishning muhim sharti uning yoshiga mos tartibni tashkil etishdan iborat.

Ko'pgina hollarda maktabgacha yoshdagi bolaning kundalik turmush tarzi barcha faoliyat turlari va dam olishning muvozanatli uyg'unligidan tashkil topadi. Bunday tartibni bolaning xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini yaxshi biladigan ota-onalar shakllantira oladi. Jarayonning muhim nuanslari shundan iboratki, faoliyatning har bir turi (o'yinlar, ovqatlanish, sayr, mashg'ulotlar) muayyan talablar asosida tashkil etilishi lozim. Bu bolalarning jismoniy va ruhiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Tarbiyalanuvchi kun davomida tashkilotda kun tartibi asosida faoliyatlar bilan shug'ullanadi, kechki vaqtlarda, dam olish hamda bayram kunlari esa bola oila davrasida bo'ladi.



Oila muhitida jismoniy tarbiyani tashkil etishning asosiy omili sog'lom turmush tarzidir. Oilada bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun bola xonasi va unda alohida burchak tashkil etilishi zarur bo'lib, u rasmiy kitoblar, o'yinchoqlar, sport jihozlari va anjomlari, rangli qalamlar hamda oq qog'oz bilan ta'minlanishi kerak. Bola xonasi umumiy tarzda jihozlanishi yoki yuqorida ko'rsatilgan buyumlar bilan ta'minlangan bo'lishi mumkin, biroq faqat bitta rivojlanish markazi bilan cheklanish samaradorlikni pasaytiradi. Shu sababli mazkur jihozlardan tashkil topgan kichik burchaklarning mavjudligi ijobiy natija beradi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-son¹ qarorining 3-bandiga muvofiq Toshkent shahrida joylashgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tadbirkorlik subyektlari tomonidan tayyor ovqatlarni yetkazib berish bo'yicha eksperiment o'tkazildi.

Eksperiment jarayonida 60 nafar tadbirkor va 266 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti ishtirok etib, jami 63 760 nafar tarbiyalanuvchi autsorsing usulida, ya'ni maktabgacha ta'lim tashkilotiga tayyor ovqat yetkazib berish yo'li bilan ovqatlantirildi. Eksperiment doirasida 3 358 nafar ota-ona o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, 2 921 nafar (87 %) ota-ona autsorserlar tomonidan tayyorlangan taomlarga ijobiy baho berdi. Natijada davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena talablariga muvofiq ovqatlantirish orqali bolalarning sog'lom va barkamol o'sishini ta'minlash, sog'lom ovqatlantirishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish vazifalari belgilandi.

Shuningdek, ovqatlantirish autsorsing usulida tashkil etiladigan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida autsorser tomonidan foydalaniladigan kommunal xizmatlar to'lovlari maktabgacha ta'lim tashkilotiga ajratilgan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari doirasida qoplanishi, ijara shartnomasi doirasida vaqtincha foydalanishga beriladigan oshxonaning ishlab chiqarish xonalari, asbob-uskunalari, idish-tovoqlari va mebellaridan foydalanish uchun to'lov nol stavka bo'yicha belgilanishi, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni belgilovchi sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini uch oy muddatda qayta ko'rib chiqish va zarur hollarda o'zgartirish kiritish choralari ko'rildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida kun tartibini to'g'ri va ilmiy asosda tashkil etish ularning jismoniy, aqliy hamda ruhiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. To'g'ri rejalashtirilgan kun tartibi bolalarning sog'lig'ini mustahkamlash, ularning faoliyat turlariga bo'lgan qiziqishini oshirish va o'zini tutish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Kun tartibiga qat'iy rioya etish orqali bolalarda intizom, mustaqillik va mas'uliyat hissi rivojlanadi. Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari hamda ota-onalar bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda kun tartibini tashkil etishga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2023-yil 26-maydagi PF-79. <https://lex.uz/docs/-6476175>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2024-yil 16-fevraldagi PF-36. <https://lex.uz/docs/-6802687>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim, sog'liqni saqlash va sport tizimini barqaror rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2025-yil 30-dekabrda PQ-398. <https://lex.uz/en/docs/-7962935>
4. Sog'liqni saqlash vazirligining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar"gi Qarori, 2017-yil 17-iyul, qaror raqami: 0016-21. <https://lex.uz/docs/-5534107>
5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining qarori, 22.11.2023 yildagi 26-son. "Bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalariga, bolalar oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligiga, saqlanishiga va tashilishiga bo'lgan sanitariya-gigiyena talablarini (0059-23-son SanQvaN) tasdiqlash to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-6714544>

1 <https://lex.uz/docs/-3334234>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.